



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Abduraxmon Abduxalimov</b> YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	5
<b>2. Омонулло Бўриев</b> СОҲИБҚИРОН НАЗАРИДАН ЎТГАН ТАРИХИЙ АСАР.....	12
<b>3. Хайрия Буриева</b> ПУТЕВОДИТЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКАЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ.....	19
<b>4. Nodira Babadjanova</b> DINIY-MA’RIFIY SIYOSAT: QAT’IY KURASHDAN KENG BAG‘RIKENGLIK SARI.....	32
<b>5. Davletov Sanjarbek, Bekimbetov Bahodir,</b> OROL DENGIZINING PAYDO BO‘LISHI VA GIDROLOGIK O‘ZGARISHLARI TARIXIDAN.....	37
<b>6. Дорошенко Татьяна</b> ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛЬСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ УЧАСТИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КРАЯ (КОНЕЦ XIX -НАЧАЛО ХХВВ.).....	42
<b>7. Axmedov Baxriddin</b> O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI: TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–2016 yillar misolida).....	50
<b>8. Akbarova Nigora</b> FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINIING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI.....	60
<b>9. Nurmetov Ismoil</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	65
<b>10. Зарипов Жахонгир</b> ИСТОРИОГРАФИЯ ПО МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА 70-80-Х ГОДОВ ХХ ВЕКА.....	71
<b>11. Polvanov Azim</b> TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	79
<b>12. Choriyeva Nargiza</b> O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM: HOZIRGI HOLATI, SALOHİYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	84



**Abduraxmon Abdumo‘minovich Abduxalimov**  
Andijon davlat tibbiyot instituti Yoshlar bilan ishlash,  
ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i,  
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH  
TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI  
(ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)**

**For citation:** Abdurakhmon A. Abdukhalimov. ISSUES OF IMPROVING TYPES OF MEDICAL SERVICES IN NEW UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF ANDIJAN REGION). Look to the past. 2026, vol. 9, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18498703>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish masalalari Andijon viloyati misolida ilmiy-tahliliy jihatdan o‘rganilgan. Tadqiqotda sog‘liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, tibbiy xizmatlarning turlari va sifatini oshirishga qaratilgan davlat dasturlari hamda ularning hududiy darajadagi amaliy natijalari tahlil qilingan. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini rivojlantirish, ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar qamrovini kengaytirish, raqamli tibbiyot texnologiyalarini joriy etish va xususiy tibbiyot sub’ektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, viloyatda tibbiy xizmatlardan foydalanish ko‘rsatkichlari, aholi salomatligini muhofaza qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligi hamda mavjud muammolar tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, sog‘liqni saqlash, tibbiy xizmatlar, Andijon viloyati, raqamli tibbiyot, birlamchi tibbiy yordam.

---

**Абдурахмон Абдумоминович Абдухалимов**

Заведующий кафедрой работы с молодежью, духовности и просвещения Андижанского государственного медицинского института,  
доцент, доктор исторических наук

**ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВИДОВ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ В  
НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ  
АНДИДЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье научно и аналитически исследуются вопросы совершенствования системы медицинского обслуживания в условиях Нового Узбекистана на примере Андижанской области. Анализируются институциональные реформы, проводимые в секторе

здравоохранения, государственные программы, направленные на повышение видов и качества медицинских услуг, а также их практические результаты на региональном уровне. Особое внимание уделяется развитию первичной медицинской помощи, расширению спектра специализированных медицинских услуг, внедрению цифровых медицинских технологий и поддержке деятельности частных медицинских организаций. Кроме того, анализируются показатели использования медицинских услуг в регионе, эффективность мер по защите здоровья населения и существующие проблемы.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, здравоохранение, медицинские услуги, Андижанская область, цифровая медицина, первичная медико-санитарная помощь.

**Abdurakhmon A. Abdukhalimov**

Head of the Department of Youth Work,  
Spirituality and Enlightenment, Andijan State Medical Institute,  
Doctor of Historical Sciences (DSc), Associate Professor

## ISSUES OF IMPROVING TYPES OF MEDICAL SERVICES IN NEW UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF ANDIJAN REGION)

### ABSTRACT

This article scientifically and analytically studies the issues of improving the medical service system in the conditions of New Uzbekistan using the example of Andijan region. The study analyzes the institutional reforms being implemented in the healthcare sector, state programs aimed at improving the types and quality of medical services, and their practical results at the regional level. In particular, special attention is paid to the development of primary medical care, expanding the scope of specialized medical services, introducing digital medical technologies, and supporting the activities of private medical entities. In addition, the indicators of the use of medical services in the region, the effectiveness of measures aimed at protecting the health of the population, and existing problems are analyzed.

**Index Terms:** New Uzbekistan, healthcare, medical services, Andijan region, digital medicine, primary health care.

### 1. Dolzarbligi:

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligini muhofaza qilish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish turlarini kengaytirish va ularning sifatini oshirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu jarayonlar, ayniqsa, hududlar kesimida samarali amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Andijon viloyati respublikaning aholi zich joylashgan hududlaridan biri bo'lib, tibbiy xizmatlarga bo'lgan talab yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda bugungi kunga kelib tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi yondashuvlar sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda. Yuqori malakali va yuqori texnologik ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar ko'rsatishning yaxlit tizimi shakllantirildi.

### 2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Mazkur tadqiqotda tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish masalalarini ilmiy jihatdan yoritish maqsadida umumilmiy va maxsus tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Xususan, tizimli tahlil usuli orqali Yangi O'zbekistonda, jumladan Andijon viloyatida tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish jarayonlarini chuqurroq o'rganish maqsadida og'zaki tarix usulidan foydalanildi. Ushbu usul orqali Andijon viloyatida sog'liqni saqlash sohasida uzoq yillar faoliyat yuritgan mutaxassislar, tibbiyot muassasalari rahbarlari, shifokorlar hamda sohadagi islohotlar bevosita ishtirokchilari bilan suhbatlar o'tkazildi. Bu tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida amalga oshirilgan islohotlarning amaliy jihatlari, ularning real natijalari, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish mexanizmlari haqida birlamchi, empirik

ma'lumotlarni olish imkonini berdi. Suhbatlar jarayonida respondentlarning shaxsiy tajribasi, kasbiy faoliyati va islohotlarga nisbatan munosabati ilmiy tahlil ob'ekti sifatida o'rganildi.

Shuningdek, monografik tadqiqot usuli orqali Andijon viloyatida tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining o'ziga xos jihatlari, mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar o'rganildi. Statistik tahlil metodi asosida rasmiy statistik ma'lumotlar, soha ko'rsatkichlari, tibbiy xizmatlar hajmi va sifatiga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. Mantiqiy tahlil va induksiya-deduksiya usullari asosida olingan natijalar umumlashtirilib, ilmiy xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

### **3. Tadqiqot natijalari:**

Andijon viloyatida 2021-yilning o'zida ambulatoriya-poliklinika muassasalarida 25 mln 696 ming 604 ta qatnovlar ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 3 mln 4 ming 124 tasi shifokorlarning uylarga bo'lgan qatnovi hisoblanadi. Bir aholini shifokorlarga bir yilda o'rtacha qatnovi Qorasuv shahri, Oltinko'l, Paxtaobod va Shahrixon tumanida 6,3 taga to'g'ri kelgan.

Shifoxonalarda 575 ming 727 nafar bemor davolangan, shu jumladan, shoshilinch tibbiy yordam tizimida 109 ming 157 nafar bemor davolanib, bu jami bemorlarning 19,0 foizini tashkil qilgan.

Shifoxonada o'rinlarning o'rtacha bandlik ko'rsatkichi 344,2 kun, bemorlarni o'rtacha shifoxonada bo'lishi esa 6,2 kunga teng bo'lgan. O'rin aylanish ko'rsatkichi 55,7 ni tashkil etgan.

Shahar va tumanlar hamda viloyat muassasalari bo'yicha shifo o'rinlari bandligi tahlil qilinganda shifo o'rinlar soni Shahrixon va Oltinko'l tumanlarida viloyat ko'rsatkichiga etmagan.

Ambulatoriya-poliklinikalar qoshidagi kunduzgi shifo o'rinlarda 62 ming 425 nafar, shifoxonalardagi kunduzgi shifo o'rinlarida 720 nafar, uyda tashkil qilingan shifoxonalarda esa 54 ming 600 nafar bemor davolangan.

Mavjud tez tibbiy yordam stansiyalari va ularning bo'linmalari tomonidan 1 mln 394 ming 297 ta chaqiriqlar bajarilib, unda 1 mln 483 ming 745 nafar aholiga tibbiy xizmat ko'rsatilgan.

Viloyat, tuman va shahar ko'p tarmoqli shifoxonalari tomonidan aholiga statsionar yordam ko'rsatilgan. Shoshilinch tibbiy yordam uchun, shuningdek, kasalliklar va bemorlarning belgilangan toifalari uchun ushbu statsionar yordam davlat tomonidan kafolatlangan xizmatlar paketining bir qismini tashkil etgan[1].

2021-yil yakuni bilan viloyatda jami 205 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, 18 ta tuman va shahar tibbiyot birlashmalari tarkibidagi ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar, 94 ta oilaviy shifokorlik punktlari, 79 oilaviy poliklinika, 1 ta stomatologik poliklinikalar, 2 ta dispanserlar qoshidagi poliklinikalar, 3 ta markazlar, 6 ta markazlar qoshidagi poliklinikalar va 2 ta shifoxona qoshidagi poliklinika faoliyat ko'rsatgan. Ular bir smenada 38 ming 180 nafar bemorlarni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan. Biroq bu davrda aholi soni ortishi hisobiga har 10 ming aholini ambulatoriya-poliklinika muassasalari quvvati bilan ta'minlanishi 122,2 dan 118,5 ga kamaygan[1].

Viloyatda o'rganilayotgan davrda yuqori malakali tibbiyot kadrlarini tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktyabrdagi "Xirurgiya xizmatini transformatsiya qilish, hududlarda jarrohlik amaliyotlari sifatini oshirish va ko'lamini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5254-son Qarori[2] ijrosi yuzasidan Andijon davlat tibbiyot instituti rektori M.M.Madazimov va institut klinikasi bosh shifokori B.J.Rahmonovlar tashabbusi bilan 2021-yil 25-oktyabrdan 25-dekabrgacha 9 nafar professor-o'qituvchi va ishchi xodimlar (2 nafar jarroh, 1 nafar bolalar jarrohi, 1 nafar urolog, 1 nafar nefrolog, 2 nafar anesteziolog-reanimatolog va 2 nafar tashrix xonasi hamshiralari) Toshkent shahrida akademik V.Voxidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy – amaliy tibbiyot markazida "Buyrak transplantatsiyasi" bo'yicha qisqa muddatli o'quv kursini muvaffaqiyatli o'tab tajriba almashib qaytgan.

2022-yil 23-aprel kuni ilk bor Andijon viloyatida rejali ravishda "Tirik donordan o'ng tomonlama geterotopik buyrak transplantatsiya" jarrohlik amaliyoti muvoffaqiyatli o'tkazilgan.

Andijon davlat tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari va shifokorlari shu jarayonlardan o'tib, a'zo va to'qimalar transplantatsiya nimaligi, qanaqa jarayonlar bo'lishi mumkunligi yaxshiroq o'rganish va o'zlashtirish maqsadida Moskva, Minsk va Kazan shaharlarida bir necha bor malaka

oshirdi. Natijada bugungi kunga qadar 10 dan ortiq bemorlarda buyrak transplantatsiyasi bo'yicha jarrohlik amaliyotlarini o'tkazildi[3].

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, bunday murakkab jarohlik amaliyotlari mutlaqo bepul bo'lib, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta'minlangan fuqarolar uchun tashkil etilgan. Muolajalar bilan bog'liq harajatlar davlat tomonidan qoplab berilgan.

Bugungi kunda viloyatda respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining filiallari faoliyat yuritmoqda. Tuman va shahar tibbiyot birlashmalari tarkibida ixtisoslashtirilgan bo'limlar tashkil qilingan[4].

Ma'lumki, so'nggi yillarda joylarda rahbar xodimlar tomonidan inson qadri uchun tamoyili asosida aholi vakillari bilan uchrashuv va ochiq muloqotlar o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. 2022-yil 18-yanvar kuni Andijon viloyati hokimining ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari O'tkirbek Shukurovning Asaka tumani "Toshtepa" MFY hududida o'tkazgan sayyor qabulidan so'ng ushbu MFYda ishlar jadal tus oldi. Jumladan, 28-umumta'lim maktabi binosida aholi salomatligini muhofaza qilish, sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish maqsadida viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi hamda Asaka tuman tibbiyot birlashmasi tomonidan chuqurlashtirilgan bepul tibbiy ko'rik tashkil qilindi. 11 ta mutaxassis jamlangan tibbiy ko'rikda terapevt, xirurg, travmatolog, endokrinolog, okulist, LOR, kardiolog, genekolog, pediatr kabi o'z ishining ustalari mahalla ahlini tekshiruvdan o'tkazdi. Shuningdek, klinik laboratoriya orqali qon tahlillari amalga oshirildi.

"Toshtepa" MFYda to'rt mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Bu safargi bepul tibbiy ko'rik avvalgilaridan farqli bo'lib, ushbu mahallada yashovchi barcha aholi ko'rikka jalb qilindi. Patronaj hamshiralar xonadonma-xonadon yurishib, aholiga tushuntirish ishlari olib bordilar. Bundan tashqari, koronavirus infeksiyasiga qarshi emlash uchun buster dozalari ham olib kelindi.

785 nafar xonadondan iborat ushbu qishloqda 886 nafar tug'ish yoshidagi ayollar, 992 nafar 40 yoshdan oshgan aholi bo'lsa, 28 nafar nogironligi bor shaxslar ro'yxatda turadi. O'tkazilayotgan tibbiy-tekshiruvlar barchasi zamonaviy tibbiyot anjomlari yordamida bepul amalga oshirildi[5].

Viloyatda yangi sog'liqni saqlash muassasalarini bunyod etish borasida ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, viloyati hokimi Shuhratbek Abdurahmonov tashabbusi bilan 2022-yil boshida Andijon shahrida yangi ko'rinishda 8-oilaviy poliklinikasi bunyod etilgan. 11 ta mahalla fuqarolar yig'ini qamrovidagi 56 ming 617 nafar aholiga xizmat ko'rsatayotgan zamonaviy ko'rinishdagi mazkur poliklinikada jami 202 nafar tibbiyot xodimi faoliyat olib bormoqda. Endokrinolog, terapevt, okulist, nevropatolog, lor, xirurg, stomatolog kabi mutaxassislar tomonidan bemorlarni kerakli ko'rikdan o'tkazib, zarur muolajalar qilinmoqda.

Eng asosiysi, poliklinika nazoratidagi bemorlar bu yerda tibbiy ko'rikdan o'tib, shifokorlar tavsiyasi bilan zarur bo'lgan hollarda shu yerning o'zida yotib davolanishga imkoniyatlar yaratilgan. Ular uchun umumiy 20 o'rin ajratilgan bo'lib, birinchi qavatda nogiron va keksa yoshlilarga alohida to'rtta joy mavjud. Qolgan 16 tasi ikkinchi qavatda joylashgan bo'lib, bemorlar uchun barcha shart-sharoitlar bilan ta'minlangan[6].

Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tashabbusi bilan tibbiyot xodimlari tomonidan aholiga sifatli va bepul xizmat ko'rsatish, mahallalarga kirib borish, o'z yashash hududlarida malakali ko'riklar o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

Andijon davlat tibbiyot instituti professor-o'qituvchilari ham ushbu tibbiy ko'riklarda munosib ishtirok etib, aholi salomatligi yo'lida munosib xizmat qilmoqdalar. Ular ishtirokida viloyatning deyarli barcha tumanlarida aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlarga 132 nafardan ziyod tajribali professor-o'qituvchilarimiz 160 ta birlamchi tizim tibbiy muassasalariga birlashtirilgan. Bu ishlar doirasida joylarda mutaxassislar tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan 254 nafar fuqarolarga yashash joyining o'zida murakkab operativ davolar ko'rsatilib, tibbiy yordam berilgan[7].

Darhaqiqat, mamlakat sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, aholi salomatligini saqlash borasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash borasida institut professor-o'qituvchilari tomonidan sog'liqni saqlashning birlamchi tizimida qator ishlar amalga oshirildi. Bundan asosiy ko'zlangan maqsad aholiga qulaylik yaratish va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni aynan joylarda ko'rsatish etib belgilab olindi.

Bu davrda viloyat 16 ta shahar tumanlariga birlashtirilgan institutning 34 ta klinik kafedralari tomonidan joylarda 84 ta ma'ruzalar, 61 marotaba davra suhbatlari, 74 marotaba savol-javob kechalari o'tkazildi.

Viloyatning 160 ta birlamchi tizim davolash muassasalariga amaliy uslubiy yordamni yaxshilash va bemorlarni tashxislash hamda davolashda zamonaviy usullarni kiritish maqsadida 132 nafar professor-o'qituvchilar mas'ul etib birlashtirilib, ular tomonidan mutaxassisliklari bo'yicha bemorlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va zamonaviy standartlarni amaliyotga kiritish bo'yicha faoliyatlarini muntazam ravishda olib borish yo'lga qo'yildi. Bitiruvchi kurs talabalarining amaliyotlarini bevosita birlamchi tizimda olib borish maqsadida viloyatdagi 160 ta tibbiyot muassasalarida o'quv xonalari tashkil etilgan.

Barcha klinik kafedra tomonidan kasalliklar bo'yicha aholiga yengil o'zlashtiruvchan tarqatma materiallar va bukletlar tayyorlanib volontyor yoshlar hamda ko'ngilli professor-o'qituvchilar tomonidan joylarda targ'ibotlar olib borildi. Shuningdek, aholi orasida ko'p uchrayotgan yuqumsiz kasalliklar kelib chiqishi, belgilari, davolash va oldini olish bo'yicha Andijon viloyati teleradiokompaniyasi "Sog'lom hayot" va "Salomat bo'ling" ko'rsatuvlari orqali 84 marotaba chiqishlar qilingan.

Andijon davlat tibbiyot instituti rektori hamda Andijon viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi birlamchi tizim DPMLari bilan hamkorlikda faoliyat yuritish bo'yicha 221-T va 127-sonli sonli qo'shma buyrug'i qabul qilindi. Buyruqqa asosan institut klinik kafedra mudirlari o'z ish joylari saqlangan holda Andijon viloyatining barcha shahar va tuman tibbiyot birlashmalari boshliqlariga maslahatchi etib tayinlandi va aholining salomatlik ko'rsatkichi bo'yicha birgalikda mas'ul etib belgilandi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyuldagi "Aholiga tez tibbiy yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-283-son qarori[8] Respublika tez tibbiy yordam markazi va uning 14 ta hududiy filiallari tez tibbiy yordam xizmati hamda avtoxo'jaliklar negizida tashkil qilinishi va tez tibbiy yordamning yagona vertikal boshqaruv tizimi yo'lga qo'yilishi belgilab berildi.

Mazkur vazifalar ijrosi yuzasidan RSHTYOIM viloyat filiali tez tibbiy yordam bo'limi qoshida "Call-markaz" faoliyat boshladi va zamonaviy kompyuter texnologiyalari bilan to'la jihozlandi ID dispetcher dasturi orqali jami 56 ta operator chaqiruvlarni qabul qilish va tibbiy brigadalarga uzatish ishlarini tezkorlik bilan olib bormoqda[1].

2022-yilda viloyatdagi mavjud 250 ta tez tibbiy yordam avtotransport vositalariga radioaloqa vositalari hamda GPS trekerlar o'rnatildi. ID dispetcherlik tizimi yaratilib, yo'lga qo'yilgunga qadar 9 oy vaqt sarflandi. Dastavval dispetcherlar soni 16 tani tashkil qilgan bo'lsa, mazkur tizim bilan ular soni 56 taga yetdi. Bu esa uzoq-yaqin hududlardan bo'layotgan chaqiriqlarga tezkorlik bilan javob berish imkoniyatini kengaytirdi. Aytish joizki, 2020-yilda chaqiruvlar uchun 30 ta kanal faoliyat yuritgan bo'lsa, 2021-yilning sentyabridan boshlab ular 130 taga etgan. Chaqiriqlar brigadalarga saralash orqali, ya'ni bemorning ahvoli, kasallik turi va og'irlik darajasiga qarab berilmoqda. ID dispetcherlik dasturining yana bir afzallik tomoni shundaki, ilgari bemorlar to'g'risidagi ma'lumotlar bir yoki ikki yil saqlangan bo'lsa, endilikda har bir chaqiruvning kompyuterga kiritilishi, tizimga tushirilishi bilan bemorga qaysi operator javob bergani, vaqti, qaysi brigada tez tibbiy yordam ko'rsatgani va holati qanday o'zgargani to'g'risidagi ma'lumotlar bazada umrbod saqlab qolinadi.

Mazkur qulayliklarning barchasi aholiga tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni yanada yaxshilash va yaqinlashtirish, ushbu xizmatni yanada isloh etishga xizmat qiladi[9].

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 14-iyun kuni Andijon viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda avvalo, aholi salomatligini saqlash masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilib, "Har yili 1 million aholi gepatit "B" va "S" bo'yicha skriningdan o'tkaziladi, gepatit "S"ga chalingan bemorlar to'liq davlat hisobidan davolanadi[10]", – deb ta'kidladi.

Prezident tashabbusi bilan Andijon viloyatida Respublikaga o‘rnak bo‘la oladigan, jahon andozalari darajasida yangicha yondashuvlar bilan sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy ta‘lim tizimi yaratiladi. Dunyoning yetakchi mamlakatlaridagi sog‘liqni saqlash tizimi va tibbiy ta‘lim standartlari tajribalari qo‘llaniladi. Respublika tibbiyot markazlarining yetakchi shifokorlari, olimlari, Respublikadagi barcha tibbiyot institutlarining professor-dotsentlari, Respublika sog‘liqni saqlash tizimining yetuk mutaxassislari, Andijon davlat tibbiyot instituti professorlari va viloyat markazlarining yuqori malakali shifokorlari viloyatning barcha shahar-tumanlarida ilmiy tadqiqotlar, o‘rganishlar olib boradilar. Aholining kasallanish strukturalarini o‘rganish uchun kengaytirilgan ilmiy asoslangan tibbiy ko‘riklar o‘tkaziladi, zarur hollarda chet ellik mutaxassislar jalb etiladi, yangi tizim yaratiladi[11].

Jumladan, 2023-yil iyun oyida Sog‘liqni saqlash vazirligi mas‘ullari, mamlakatning eng malakali mutaxassislari, respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari rahbarlari va yetakchi shifokorlari, olimlari, yurtimizdagi barcha tibbiyot institutlarining professor-o‘qituvchilaridan iborat maxsus guruh viloyatning 16 ta hududiga bo‘lingan holda shahar va tumanlarda aholining kasallanish strukturalarini o‘rganish maqsadida kengaytirilgan va ilmiy asoslangan tibbiy ko‘riklar o‘tkazdi.

Sog‘liqni saqlash vaziri A.Sh.Inoyatov boshchiligidagi tibbiy karvon tarkibiga Respublika Ixtisoslashtirilgan Ftiziatriya va Pulmonologiya ilmiy-amaliy Tibbiyot markazi direktori N.N.Parpiyeva, Respublika travmatologiya ilmiy-amaliy markazi direktori M.E.Irismetov, Respublika ixtisoslashtirilgan Kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori X.G‘.Fozilov, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori M.N.Tillyashayxov, Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi direktori D.I.Ahmedova, Toshkent bolalar ilmiy markazi bosh shifokori M.O.Saidov, V.Vohidov nomli Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy markazi direktori o‘rinbosari J.A.Xadjibayev, Toshkent Tibbiyot akademiyasi rektori A.Q.Shodmonov, Andijon davlat tibbiyot instituti rektori M.M.Madazimov va boshqa tajribali, yetuk professor olimlar kiritilgan[1].

Viloyatning barcha tuman shaharlarini qamrab olgan tibbiy ko‘riklarda ijtimoiy ahvoli og‘ir, xastaligi sabab hech qanday imtiyozga ega bo‘lmagan, “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”da turgan, ammo yashash hududlarida joylashgan tibbiy xizmat ko‘rsatish muassasasidan-da olisga chiqqan aholi vakillari, 3-, 4-guruhga mansub bemorlar, 1-, 2-guruhga kiruvchi, kasalligi bo‘yicha “D” nazoratida turgan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarning sog‘lomlashtirish ishlariga alohida e‘tibor qaratildi. Ular uchun akusher ginekolog, pediatr, nevropatolog, jarroh, ftiziator, endokrinolog, oftalmolog, infeksiyalar, travmatolog, LOR, onkolog, psixiatriklar tomonidan umumiy qon, siydik tahlili, qon bosimi, rentgen, UTT, EKG va boshqa turdagi diagnostik tekshiruvlardan o‘tkazildi. Tibbiy ko‘rik davomida kasalliklar erta bosqichlarda aniqlanib, kerakli bemorlarda murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi.

Birgina Asaka tumanida o‘tkazilgan tibbiy ko‘rikning birinchi kunida 400 nafarga yaqin, salomatlik ko‘rsatkichi bo‘yicha yuqori xavf guruhiga mansub fuqarolar murojaat qilgan bo‘lsa, xastaligi sabab uyda yotib qolgan 10 dan ortiq fuqarolar xonadonida xonadonbay tibbiy ko‘riklar tashkil etildi.

“O‘zbekistonda tibbiyot sohasi kundan kunga rivojlanib bormoqda. Men Andijon viloyati Kardiologiya markazidagi shifokorlar sabab yana hayotga qaytdim. Jarrohlik yo‘li bilan yuragimga stent qo‘yishdi. Ular o‘z ishini ustalari ekan. 2023 yil noyabr oyidan beri tibbiy ko‘rikka borib turaman. Har gal borganimda meni ochiq chehra bilan kutib oladilar. Barcha shifokorlarga katta rahmat[12]”, deydi mehnat fahriysi Osiyoxon Usmonova.

#### **4. Xulosalar:**

Xulosa qilib aytganda o‘rganilayotgan yillarda Andijon viloyati aholisining salomatligini saqlash bilan bog‘liq muammolar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turgan. Profilaktika, davolash sohasidagi islohotlar, moliyalashtirish va xalqaro hamkorliklar bu muammolarni bartaraf etishda asosiy vazifani bajardi. Har bir davrda respublikada sog‘liqni saqlash sohasida olib borilgan amaliy islohotlar aholi salomatligini saqlashda sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi.

Viloyatda tibbiy xizmatlarni takomillashtirish yuzasidan katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi. Ammo, ekologik, infratuzilmaviy muammolar va sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish masalalariga yanada e'tiborni kuchaytirish kerak.

Mazkur davrda viloyatda tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish va aholini sog'lom turmush tarziga yo'naltirish bo'yicha ishlab chiqilgan qator dasturlar amaliyotga tadbiiq qilindi. Lekin, bu borada to'liq va samarali natijalarga erishish uchun malakali kadrlarni tayyorlash, innovatsion tibbiy texnologiyalardan ko'proq foydalanish, aholi orasida profilaktik targ'ibot tadbirlarini yanada ko'paytirish lozim.

#### Iqtiboslar/Сноски /References:

---

1. Andijon viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi.
2. <https://lex.uz/docs/-5668623>
3. O'g'zaki tarix: Tibbiyot fanlari nomzodi, dotset Matkarimov Baxtiyorjon Xalmirzaevich. (Suhbatni Abduxalimov Abduraxmon Abdumo'minovich 15.04.2024-yilda yozib olgan).
4. <https://www.minzdrav.uz/uz/news/detail.php?ID=57456>
5. Asaka tumani Toshtepa mahallasi fuqarolari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi. / Andijonnoma.uz. 18.01.2022 y. / 406
6. Siddiqova M. Hudud aholisi ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlardan mamnun. / Andijonnoma.uz. 16.03.2022 y. / 304
7. O'g'zaki tarix: Tibbiyot fanlari doktori (DSc) Mirzakarimov Baxromjon Xalimjonovich. (Suhbatni Abduxalimov Abduraxmon Abdumo'minovich 15.12.2022-yilda yozib olgan).
8. <https://lex.uz/docs/-6076135?ONDATE=23.01.2025>
9. Raxmonova Z. Innovatsiya – sifat va qulaylik: ID-dispatcher dasturi orqali respublikada yagona tibbiy tizim yaratildi. / Andijonnoma.uz. 28.07.2022 y. / 270
10. <https://uzlidep.uz/uz/news-of-party/14489>
11. Andijon davlat tibbiyot instituti joriy arxivi.
12. O'g'zaki tarix: Mehnat faxriysi Osiyoxon Usmonova. (Suhbatni Abduxalimov Abduraxmon Abdumo'minovich 01.11.2024-yilda yozib olgan).

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].